

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
FIZIKA FAKULTETI

QATTIQ JISMLAR FIZIKASI KAFEDRASI

5440100-“FIZIKA” YO'NALISHI BO'YICHA BAKALAVR
AKADEMIK DARAJASINI OLIH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

MAVZU: Kristallar simmrtriyasini uslubiyati”o’rganish

Himoyaga tavsiya etildi
bo’lim talabasi Xudoyberdiyeva
Gulshoda
Kafedramudiri

Bajardi: 4 - kurs kunduzgi

_____dots. Axrorov S.Q.
“ ____ ” _____2012 y.

Ilmiy rahbar:
_____dots. S.N. Sirajev

S A M A R Q A N D - 2012

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I-BOB. KRISTALLAR SIMMETRIYASI ELEMENTLARI.....	4
1.1 Oddiy simmetriya elementlari.....	4
1.2 Murakkab simmetriya elementlari.....	8
1.3 Simmetriya sinflarini belgilash.....	15
II-BOB. KRISTALLOGRAFIYA ASOSLARIGA OID MASALALAR..	22.
2.1. Kristallografiyaga asoslariga oid masalalar va ularning yechimlari...	22
Xulosa.....	56
Adabiyotlar ro'yxati.....	57

KIRISH

Biz xilma-xil, lekin go'zal tabiat qo'ynida yashaymiz. Tabiatning go'zalligi uning simmetrikligi bilan aniqlanadi. Tabiatdagi moddalarning aksariyati bir-birini takrorlovchi va bir-biriga nisbatan ma'lum qonuniyat asosida joylashgan qismlardan iborat bo'ladi. Buni o'simliklar dunyosida ham (daraxt shoxi va bargi, turli xil gullar va boshqalar), hayvonot dunyosida ham (kapalaklar, hayvonlar va boshqalar), minerallar dunyosida ham ko'rish mumkin. Bularning hammasi ikki yoki undan ko'p bir-birini takrorlovchi teng qismlardan iborat bo'ladi. Masalan, kapalaklar, ikkita qanotlaridagi dog'largacha bir xil bo'lgan ikki teng qismdan iborat. Bu qismlar ko'zguli tekislikning ikki tomonida joylashgandek bo'ladi. Agar kapalakni uning o'rtasidan o'tgan ko'zguli tekislikda qaytarsak, uning qismlari bir-biri bilan o'zaro ustma-ust tushadi va kapalakning holatida o'zgarish sezilmaydi. Ana shunday teng va ma'lum qonuniyat asosida joylashuvchi qismlardan iborat bo'lgan moddalarga simmetrik moddalar deyiladi. Barcha simmetrik moddalar go'zal va nosimmetrik bo'lgan moddalar esa xunuk ko'rinishda bo'ladi.

Simmetriya grekcha so'z bo'lib, teng o'lchamli demakdir. Ikkita modda (jism yoki biror modda bo'laklarining) o'zaro simmetrik bo'lishi uchun u moddalarning har ikkalasida bir xil qism bo'lishi, har bir moddaning ikki nuqtasi orasidagi masofalar bir-biriga teng bo'lishi kerak. Bunday ikkita moddalar biron geometrik amallar bajarilganda to'la ustma-ust tushishi kerak. Geometrik amallar bajarilganda to'la ustma-ust tushuvchi moddalar *o'zaro simmetrik moddalar deyiladi*. Moddalar yoki biror modda qismlarining o'zaro ustma-ust tushishiga olib keluvchi geometrik amallar *simmetriya amallari deyiladi*. Simmetriya amallariga tekislikda qaytarish, biror yo'nalish atrofida burash, nuqtada qaytarish (inversiya) va parallel siljitish amallari kiradi. Simmetriya amallarini bajarishga imkoniyat beruvchi geometrik tasvirlar *simmetriya elementlari deyiladi*.


Simmetriya elementlari bo'lib, moddada tekisliklar, yo'nalishlar va nuqtalar xizmat qiladi. Bunday elementlarga mos ravishda simmetriya tekisligi, simmetriya o'qi, simmetriya markazi deyiladi. Simmetriya elementlari oddiy va murakkab bo'ladi. *Oddiy simmetriya elementlari deb*, bitta simmetriya amalini bajarishni talab qiluvchi simmetriya elementlariga aytiladi. Bunday simmetriya elementlariga simmetriya tekisligi, simmetriya markazi va burama simmetriya o'qlari kiradi. *Murakkab simmetriya elementlari deb*, birdaniga ikkita burash va siljitish amalini bajarishni talab qiluvchi simmetriya elementlariga aytiladi. Murakkab simmetriya elementlariga ko'zguli, burama va inversion simmetriya o'qlari kiradi. Simmetriya elementlari uchun ikki xil belgi: xalqaro va Shenflis belgilari ishlatiladi. Xalqaro belgilashda simmetriya o'qlari 1,2,3..., simmetriya tekisligi m , simmetriya markazi C orqali, Shenflis belgisi bo'yicha simmetriya o'qlari C_n , simmetriya tekisligi P va simmetriya markazi C harfi bilan belgilanadi. Simmetriya o'qlari uchun L_n belgi ham ishlatiladi. Bu belgi simmetriya formulalarini belgilashda qo'llaniladi.

I-BOB. KRISTALLAR SIMMETRIYASI ELEMENTLARI


1.1 ODDIY SIMMETRIYA ELEMENTLARI

Yuqorida ta'kidlanganidek, oddiy simmetriya elementlariga: simmetriya tekisligi, simmetriya o'qi va inversiya (simmetriya) markazi kiradi. *Simmetriya tekisligi deb*, modda yoki jismlardagi shunday tekislikka aytiladiki, bu tekislik moddani ikkita bir-biriga nisbatan ko'zguli teng bo'lakka bo'ladi. Yoki aksincha, agar jismda bir-biriga nisbatan ko'zguli teng bo'laklar bo'lsa, bu bo'laklar o'rtasidan simmetriya tekisligi o'tkazish mumkin. Demak, agar biror jism yoki geometrik shakl simmetriya tekisligiga ega deyilsa, u jism yoki geometrik shakl shu tekislikning ikki tomonida yotuvchi ikkita ko'zguli teng bo'laklardan iborat bo'ladi. Masalan, daraxt bargi, kapalak, teng yonli uchburchaklar (balandligiga nisbatan) ikkita teng qismlardan iborat bo'lib, ularning har birining o'rtasidan simmetriya tekisligi o'tkazish mumkin. Simmetriya tekisligi P yoki m harfi bilan belgilanadi.


Agar jism bir necha teng bo'laklardan iborat bo'lsa, unga mos holda jism bir necha simmetriya tekisliklariga ega bo'lishi mumkin. Masalan, teng yonli uchburchak-1 ta, kvadrat-4 ta, gul (gulning turiga qarab) - 2 ta, 6 ta, 24 ta va undan ko'p simmetriya tekisliklariga ega bo'lishi mumkin. 1-rasmda ba'zi bir geometrik shakllarning simmetriya tekisligi parallel chiziq bilan ko'rsatilgan.



Teng yonli uchburchak



Kvadrat



4 bargli gul


1-rasm. Ikki o'lchamli ba'zi geometrik shakllarda simmetriya tekisliklarining soni va joylashishi.

Simmetriya o'qi deb, modda orqali o'tuvchi shunday yo'nalishga aytiladiki, modda bu yo'nalish atrofida ixtiyoriy α burchakka buralganda, u burashdan avvalgi boshlang'ich holatini to'la egallaydi. Demak, moddada simmetriya o'qining bo'lishi uchun uning teng qismlari bu o'q atrofida ma'lum qonuniyat asosida joylashishi kerak. α burchakning qiymati $0-360^0$ oralig'ida bo'lishi kerak. Modda qismlarining fazoda joylashishiga qarab, modda simmetriya o'qi atrofida to'la aylantirilganda bir yoki bir necha marta boshlang'ich holatini egallashi (ustma-ust tushishi) mumkin. Moddani biror yo'nalish atrofida α burchakka burganda moddaning boshlang'ich holatini to'la egallashlari (ustma-ust tushishlari) soni $-n$ ga *simmetriya o'qining tartibi deyiladi* va u quyidagicha aniqlanadi:

$$n = \frac{360^0}{\alpha}$$

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, moddalarning tashqi shakliga qarab, ustma-ust tushishlari soni, yani simmetriya o'qining tartibi har xil bo'ladi. Ularning tartibi 1 dan ∞ gacha bo'ladi (2-rasm).


1-chi tartibli simmetriya o'qiga ega bo'lgan jismga ixtiyoriy simmetrik yoki asimmetrik bo'lgan jismlarni misol qilib keltirish mumkin. Tabiatdagi har qanday jism cheksizta 1-tartibli simmetriya o'qiga ega bo'ladi.




2-rasm. 1 dan ∞ gacha tartibdagi simmetriya o'qlariga ega bo'lgan geometrik shakllar qatori.

2-rasmlarda simmetriya o'qlari kitob tekisligiga tik yo'nalgan. Aniq tashqi ko'rinishga ega bo'lgan geometrik shakllar va kristall ko'pyoqlilarning simmetriya o'qlarini keyingi paragrafda ko'ramiz. Hozircha kubda 3 ta 4-tartibli, 4 ta 3- tartibli va 6 ta 2- tartibli simmetriya o'qlari, sharda esa cheksizta cheksizinchi tartibli simmetriya o'qlari mavjud bo'lishini ta'kidlaymiz. Simmetriya o'qlari ularning tartibini ko'rsatuvchi sonlar 1,2,3..... ∞ yoki, har xil harflar C, L, Λ bilan belgilanadi. Agar simmetriya o'qlari harflar bilan belgilansa, unda o'qning tartibi harfning o'ng tomonida indeks yoki daraja ko'rinishida yoziladi. Masalan, to'rtinchi tartibli simmetriya o'qi C_4 , L_4 yoki g^4 kabi belgilanadi. Rasmda ko'rsatiladigan simmetriya o'qlari to'g'ri chiziqlar bilan ifodalanadi. Ularning tartibi esa, to'g'ri chiziq uchida joylashgan tegishli ko'p burchaklar bilan ko'rsatiladi.

3-rasmda 2, 3, 4, 6...tartibli o'qlarga ega bo'lgan jismlarda zarrachalar (jism qismlari) ning joylashish qonuniyati ko'rsatilgan.




3-rasm. 2, 3, 4, 6...tartibli simmetriya o'qiga ega bo'lgan jismlarda jism qismlarining joylashish qonuniyati.



4-rasm. Kubda 4-chi (a), 3-chi (b), va 2-chi (c) tartibli o'qlarning joylashishi.

Simmetriya (inversiya) markazi deb, modda ichidagi shunday nuqtaga aytiladiki, modda ichida bu nuqtadan hamma yo'nalishlar bo'yicha bir xil uzoqlikda bir xil nuqtalar yoki moddaning bir xil qismlari joylashgan bo'ladi. Sharning markazi, aylananing markazi, kubning hajmiy markazi, romashka

gulining markazi bu jismlar uchun simmetriya markazi bo'ladi. Bu jismlarning ixtiyoriy nuqtasini (qismini) simmetriya markaziga nisbatan aks ettirsak, jismning ikkinchi tomonidagi xuddi shunday nuqta (qism) bilan ustma-ust tushadi. Shuning uchun ba'zi hollarda simmetriya markazi *aks ettirish markazi yoki inversiya markazi deb ham ataladi*. Simmetriya markazi C yoki i harfi bilan belgilanadi va 5-rasmdagidek nuqta shaklida belgilanadi. Quyida aylana va parallelogramning simmetriya markazlari ko'rsatilgan (5-rasm).



5-rasm. Parallelogram va aylanada simmetriya markazining joylashishi.

Aylana diametrining qarama-qarshi uchlarida joylashgan A va D nuqtalar, parallelogramning diagonallari uchlarida joylashgan A va B nuqtalar, hamda K va L nuqtalar C nuqtadan bir xil uzoqlikda joylashgan va bir xil nuqtalar hisoblanadi. D va E nuqtalar ham shunday kuchga ega. Demak, aylana va parallelogram uchun C nuqta simmetriya markazi bo'ladi.


1.2 MURAKKAB SIMMETRIYA ELEMENTLARI

Murakkab simmetriya elementlariga inversion va ko'zguli burama simmetriya o'qlari kiradi va ular ham oddiy simmetriya o'qlari kabi 1,2,3... ∞ tartibli bo'ladi.

a) Inversion simmetriya o'qlari. *n*-chi tartibli inversion o'q deb, modda orqali o'tuvchi shunday chiziqqa aytiladiki, moddani bu chiziq atrofida $\alpha = 360^\circ/n$ burchakka burab, moddadagi simmetriya markaziga qaytarsak, modda o'zining boshlang'ich holiga *n* marta qaytadi. Inversion o'q $\bar{n}$ yoki L_{n_i} bilan belgilanadi.

Masalan, 1-tartibli inversion o'q- L_{1i} , 2- tartibli - L_{2i} cheksiz tartibli esa - $L_{\infty i}$ ko'rinishida belgilanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inversion o'qlardan ba'zilar oddiy simmetriya elementlari bilan teng kuchli bo'ladi. Masalan, $L_{1i} = C$, $L_{2i} = P$ bo'ladi. Inversion o'qlardan birinchi beshtasining (L_{1i} , L_{2i} , L_{3i} , L_{5i} , L_{6i}) geometrik mohiyati bilan quyida tanishamiz.

Birinchi tartibli inversion o'q deb, modda yoki shakl orqali o'tuvchi shunday chiziqqa aytiladiki, moddani bu chiziq atrofida 360^0 ga burab, simmetriya markazida qaytarsak, modda boshlang'ich holatiga qaytadi. Buni 6-rasmda yaqqol ko'rish mumkin. A va B nuqtalarda jismning bir xil elementlari nuqtalari mavjud bo'lsin. Bu nuqtalar jismni 360^0 ga burab, C nuqtada qaytarganda avvalgi holatiga to'la qaytadi. Bu shaklning markazidan o'tgan o'q L_{1i} ekanligidan dalolat beradi.



6-rasm. Birinchi tartibli inversion o'qni ko'rsatuvchi shakl.


Ikkinchi tomondan A va B nuqtalar simmetriya markazida qaytarilganda ham avvalgi holatiga qaytadi. Demak, 1-tartibli inversion o'qning ta'siri oddiy simmetriya elementlaridan biri bo'lgan simmetriya markazi ta'siri kabi bo'lar ekan.

Demak,


$$L_{1i} = C$$

Bundan, L_{2i} -ni alohida simmetriya elementi sifatida qaramasa ham bo'lar ekan, degan xulosa kelib chiqadi.

Moddada **ikkinchi tartibli inversiya o'qining** bo'lishi uchun modda qismlari, nuqtalari 7-rasmda ko'rsatilgandek joylashishi kerak. Moddani 180° ga buraganda A nuqta A' nuqtaga, B nuqta esa B' nuqtaga va shakl yangi holatga o'tadi. Lekin simmetriya markazida qaytarsak, A va B nuqtalar burashidan avvalgi o'rinlarini egallaydi va jism boshlang'ich holatiga qaytadi.



7-rasm. Ikkinchi tartibli inversion o'qni (L_{2i}) ko'rsatuvchi shakl.



8-rasm. Ikkinchi tartibli inversion o'qning (L_{2i}) simmetriya tekisligiga (m) teng ekanligini


($L_{2i} = m$) ko'rsatuvchi shakl.

A va B nuqtalarni ham simmetriya tekisligida qaytarsak, jism boshlang'ich holatiga qaytadi. Bundan ikkinchi tartibli inversion o'q o'z ta'siri bilan oddiy simmetriya tekisligiga teng kuchli ekan, degan xulosa kelib chiqadi (8-rasm).

Endi ***uchinchi tartibli inversion o'qni*** qaraymiz. Bunda jism qismlari 120^0 burchak hosil qilib joylashishi kerak. 9-rasmda ko'rsatilgan struktura L_{3i} ga ega chunki, sistemani 120^0 ga burab, C ga nisbatan qaytarsak, struktura avvalgi holatini egallaydi. Haqiqatdan ham strukturani 120^0 ga burasak A nuqta C nuqta o'rnini, C nuqta B nuqta o'rnini va B nuqta A nuqta o'rnini oladi. Lekin bu nuqtalarni o'q ustida yotgan simmetriya markazi C ga nisbatan qaytarsak, ko'chgan nuqtalar tegishlicha D, L va E nuqtalarga o'tadi. Bu esa strukturaning burashdan oldingi boshlang'ich holatidir. Xuddi shunday o'tishlar D, L va E nuqtalar uchun ham o'rinli bo'ladi. Demak, strukturani 120^0 ga burab o'q ustida yotgan simmetriya markaziga nisbatan qaytarsak, struktura avvalgi holatini egallaydi. Lekin bunday struktura mustaqil 2 ta oddiy simmetriya elementlari L_3 va C ga ega. Chunki sistemani 120^0 ga burasak, struktura boshlang'ich holatini egallaydi. Xuddi shu kabi burash amalini bajarmasdan struktura qismlarini (nuqtalarini) simmetriya markazi C da qaytarsak ham struktura boshlang'ich holatiga keladi. Demak,

$$L_{3i} = L_3 + i$$

Amaliyotda ikkita simmetriya amalini bajarish o'rniga bitta L_{3i} ni bajarish qulay. Shuning uchun bunday struktura bitta L_{3i} ega deb aytiladi.



9-rasm. Uchinci tartibli inversion o'q.


To'rtinchi tartibli tartibli inversion o'qning geometrik mohiyatini 10-rasmdan yaqqol tushuntirib berish mumkin. Sistemani 90^0 ga burasak nuqtalar

$A' B'$ va $D' E'$ holatga o'tadi (10 (a)-rasm). Bu holat sistemaning boshlang'ich holati bilan ustma-ust tushmaydi. Lekin uni simmetriya markazi C ga nisbatan qaytarsak, $D' E'$ nuqtalar AB holatga, $A' B'$ chiziq DE holatga o'tadi va sistema boshlang'ich holatiga qaytadi. Bu simmetriya amalini oldin qaralgan bironta simmetriya elementi yordamida bajarib bo'lmaydi. Demak, 4-tartibli inversion o'q, xuddi 3-tartibli inversion o'q kabi mustaqil simmetriya elementi bo'lar ekan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, 4-tartibli inversion o'q hamma vaqt ikkinchi tartibli oddiy o'qdan iborat bo'ladi. Ammo, ikkinchi tartibli oddiy o'q (L_2) 4-tartibli inversion o'qdan (L_{4i}) iborat bo'lolmaydi.

6-tartibli inversion simmetriya o'qi va uning geometrik mohiyati.

Strukturaning zarrachalari boshlang'ich holatda ABD va mnk nuqtalarda joylashgan bo'ladi. Strukturani 60^0 ga burasak (L_6 ga tegishli amal) u yangi holatga $A'B'D'$ va $m'n'k'$ ga o'tadi. Bu holat buralmasdan avvalgi holat bilan ustma-ust tushmaydi. Demak struktura L_6 ga ega emas. Endi yangi holatga ko'chgan zarrachalarning L_6 ustida joylashgan simmetriya markazi C ga

nisbatan qaytaradi. Unda A' nuqtadagi zarracha buralgan avvalgi k nuqtadagi zarracha o'rnini, B' - zarracha m zarracha, D' - zarracha n zarracha o'rnini oladi va struktura boshlang'ich holatiga qaytadi.



10-rasm. To'rtinchi tartibli inversion o'qni tushuntirishga doir.

Shunday qilib, bu struktura uchun birdaniga L_6 va C amallarini bajarib, uni avvalgi holatiga qaytarish mumkin ekan. Demak, biz qarayotgan struktura 6-tartibli inversion o'qqa ega bo'lar ekan.

Bunday struktura oddiy L_3 ga ega bo'ladi. Demak, L_{6i} ni hamma vaqt L_3 deb qarash mumkin. Lekin L_3 hech qachon L_{6i} bo'la olmaydi. Chunki, strukturaning L_3 ega bo'lishi uchun unda simmetriya markazi bo'lishi shart emas. Lekin strukturaning L_{6i} ga ega bo'lishi uchun L_3 ga tegishli strukturadan tashqari, inversiya markazi ham bo'lishi kerak.

b) Ko'zguli burama simmetriya o'qlari. Ko'zguli burama simmetriya o'qlari deb, modda (shakl) orqali o'tgan shunday chiziqqa aytiladiki, moddani bu chiziq atrofida ixtiyoriy α burchakka burab, bu chiziqqa perpendikulyar ko'zguli tekislikda qaytarilsa, jism boshlang'ich holatiga qaytadi. Moddalarda bo'lishi mumkin bo'lgan ko'zguli burama o'qlar $1, 2, 3, \dots, \infty$ tartibli bo'ladi. Ko'zguli burama o'qlar Λ harfi bilan belgilanadi. Demak, moddalarda $\Lambda_1, \Lambda_2, \dots, \Lambda_\infty$ tartibli

o'qlar bo'ladi. Lekin, tekshirishlarning ko'rsatishicha bu o'qlarning jism elementiga ta'siri, xuddi inversion simmetriya o'qlari ta'siri kabi bo'ladi. Jumladan 1- tartibli ko'zguli burama simmetriya o'qining ta'siri ikkinchi tartibli inversion o'qi ta'siri kabi, ikkinchi tartibli ko'zguli burama simmetriya o'qining ta'siri birinchi tartibli inversion simmetriya o'qining ta'siri kabi bo'ladi. Umuman, bizga kristallar simmetriyasini o'rganish uchun birinchi 6 ta simmetriya o'qlari uchun quyidagi tengliklar bajarilishini ko'rsatish mumkin.

$$\Lambda_1 = L_{2i} = m; \quad \Lambda_2 = L_{2i} = C; \quad \Lambda_3 = L_{6i} = L_3P = L_3 + P; \quad \Lambda_4 = 4_{4i}; \quad \Lambda_6 = L_{3i} = L_3C = L_3 + C.$$

Shunday qilib, biz chekli jismlarning simmetriyasi quyidagi simmetriya elementlari bilan aniqlanar ekan, degan xulosaga kelamiz.

Oddiy o'qlar $L_1, L_2, L_3, \dots, L_\infty$, inversion o'qlar $L_{1i} = C, L_{2i} = P = m; L_{3i}, L_{4i}, \dots, L_{\infty i}$. Shuni alohida qayd qilish lozimki, bu simmetriya elementlariga tegishli simmetriya amallari bajarilganda, jismda hech bo'lmaganda bitta nuqta o'z o'rnida qoladi. Masalan, simmetriya tekisligiga tegishli amal bajarilganda butun tekislik, simmetriya o'qiga tegishli amal bajarilganda o'qda yotuvchi nuqtalar va nihoyat, inversiya markaziga tegishli amal bajarilganda jismdagi inversiya markazi bilan ustma-ust tushuvchi bitta nuqta qo'zg'almasdan qoladi.

Shuning uchun bunday simmetriya elementlariga *nuqtaviy simmetriya elementlari* deyiladi. Nuqtaviy simmetriya elementlari har xil mualliflar tomonidan har xil belgilangan. Lekin ikki xil belgilash dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan belgilar hisoblanadi.

1. Xalqaro belgilar. Xalqaro belgilashda oddiy o'qlar 1, 2, 3, 4, 6, ... ∞ kabi, inversion o'qlar esa, $\bar{1}, \bar{2}, \bar{3}, \bar{4}, \bar{6}, \dots, \bar{\infty}$; kabi belgilansa, simmetriya tekisligi m harfi bilan va inversiya markazi i harfi bilan belgilanadi.

2. Shenflis belgilari. Shenflis oddiy o'qlarni $C_1, C_2, C_3 \dots$ kabi, inversion o'qlarni $C_{1i}, C_{2i}, C_{3i} \dots$ kabi, simmetriya tekisligini P harfi bilan va simmetriya markazini C_i harfi bilan belgilaydi.

Kristallar simmetriyasini qarayotganda simmetriya elementlarini belgilashga to'liqroq to'xtalamiz. Shunday qilib, cheklangan jismlarning simmetriya elementlari xalqaro belgilar bo'yicha quyidagilar bo'lar ekan, degan xulosaga kelamiz. 1, 2, 3, 4, 6, $\dots \infty$, m, i, $\bar{3}$, $\bar{4}$, $\dots$

Bu elementlarning sxemasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Simmetriya elementlarini sxemada belgilash.

Simmetriya elementlari		2	3	4	6	$\bar{3}$	$\bar{4}$	$\bar{6}$
Elementlardagi tasviri	Perpendikulyar							
	Parallel							

1.3. SIMMETRIYA SINFLARINI BELGILASH

Simmetriya sinflari - turlarini belgilashning asosan shakli va turi mavjud: Xalqaro belgilar va Shenflis belgilari.

1. Xalqaro belgilar.

n – n - tartibli simmetriya o'qi.

$\bar{n}$ - n - tartibli inversiya o'qi.

m - simmetriya tekisligi.

nm - n - tartibli simmetriya o'qi va bu o'q bo'ylab yo'nalgan simmetriya tekisliklari (tekisliklar soni n - ta bo'ladi).

$\frac{n}{m}$ yoki n / m - n -tartibli simmetriya o'qi va unga tik joylashgan simmetriya tekisligi.

$n^2 - n$ - tartibli simmetriya o'qi va unga perpendikulyar yo'nalgan ikkinchi tartibli simmetriya o'qlari ($n - 2$ ta).

$\frac{n}{m}$, n/mm - n - tartibli simmetriya o'qi va bu o'qqa parallel ($n - 2$ ta) va perpendikulyar (bitta) joylashgan simmetriya tekisliklari.

$\bar{n}$ va n oldin ta'kidlanganidek 1, 2, 3, 4 va 6 qiymatlar qabul qiladi.

Simmetriya sinflarini xalqaro belgilashda simmetriya elementlarini yozish tartibi ham katta rol uynaydi. Simmetriya elementini ifodalovchi son yoki harfning ma'nosi uning yozuvda tutgan o'rniga qarab aniqlanadi. Kristallografik sinfni ifodalovchi belgi - simvolda bir xil simmetriya elementlari albatta birinchi o'rinda, boshqalari ikkinchi o'rinda, uchinchi o'rinda yozilishlari kerak. Masalan: o'rta kategoriyaga kiruvchi sinflarda birinchi o'rinda albatta bosh o'q joylashtirilishi kerak. Ikkinchi va uchinchi o'rinlarda boshqa simmetriya elementlari joylashtiriladi. Kubik kristallarda koordinata o'qlari bo'ylab yo'nalgan simmetriya elementlari (3 ta L_4 va L_2) birinchi o'rinda, uchinchi tartibli simmetriya o'qlari istisno sifatida ikkinchi o'rinda va diagonal simmetriya elementlari uchinchi o'rinda joylashtiriladi. Masalan: kubik kristallografik singoniyaga kiruvchi belgi bilan trigonal kristallografik singoniyaga kiruvchi $3m$ belgi bir - biridan tubdan farq qiladi. $m\bar{3}$ sinfda birinchi o'rinda koordinata o'qlari bo'ylab joylashgan simmetriya elementi m turishi kerak. Belgida birinchi o'rinda m turibdi. Bunday tekisliklar soni 3 ta bo'lishi kerak (chunki o'qlar soni 3 ta x, y, z). Demak, $3m$ sinfda 3 ta simmetriya tekisligi bo'lishi kerak. Ikkinchi o'rinda 3-tartibli simmetriya o'qlari turishi kerak. Ular soni 4 ta. Keyin boshqa simmetriya elementlari turadi. Sinfda yana qanday simmetriya elementlari bo'ladi? Buni yuqorida keltirilgan teoremlar asosida aniqlash mumkin.

1-teoremaga ko'ra tekisliklarining kesishish chizig'i 3 ta L_2 dan iborat. Demak, sinfda 3 L_2 bo'ladi. 2-teoremaga ko'ra, L_2 bilan m ning kesishish nuqtasida simmetriya markazi C bo'ladi. Demak, kubik singoniyadagi $m\bar{3}$ sinfda 3

ta L_2 , 4 ta L_3 , 3 ta P va C bo'lar ekan.

$$m3 \rightarrow 3 L_2 4 L_3 3PC$$

Lekin trigonal singoniyaga kiruvchi 3m sinfda L_3 , va 3P bo'ladi. Chunki, qoidaga ko'ra, bunday singoniyadagi xalqaro belgisida birinchi o'rinda yagona bosh o'q L_3 turadi. Ikkinchi o'rinda esa simmetriya tekisligi turadi. Bu tekislik belgiga ko'ra, L_3 ga parallel bo'lib, 4-teoremaga ko'ra, ularning soni 3 ta bo'lishi kerak. Demak,

$$3m \rightarrow L_3 3P$$

Bu $m3$ dan tubdan farq qiladi. Simmetriya sinflarining xalqaro yozuvini tushunish uchun bu qoidalarni albatta bilish kerak.

2. Shenflis belgisi.

C_n - n - chi tartibli vertikal simmetriya o'qi

C_{nv} - n - chi tartibli vertikal simmetriya o'qi va unga parallel bo'lgan

n ta simmetriya tekisligi (tekisliklar gorizontga vertikal).

C_{nh} - n - chi tartibli simmetriya o'qi va unga perpendikulyar bo'lgan simmetriya tekisligi.

$\mathcal{H}_n$ - n - chi tartibli vertikal simmetriya o'qi va bu o'qqa perpendikulyar bo'lgan n ta 2 - chi tartibli simmetriya o'qlari.

D_{nh} - n - chi tartibli vertikal simmetriya o'qi va unga parallel bulgan n - ta simmetriya tekisligi va bu n - chi tartibli o'qqa perpendikulyar (gorizontalg parallel) bo'lgan simmetriya tekisligi.

$C_n(C_{nL})$ - n - chi tartibli ko'zguli burama (inversion) o'q.

$D_2 = V = 3$ ta bir - biriga tik bo'lgan L_2 o'qlar.

$D_{2h} = V_h$ 3 ta bir - biriga perpendikulyar bo'lgan ikkinchi tartibli o'qlar va bu o'qlarning har biriga tik bo'lgan simmetriya tekisliklari.

$D_{2d} = V_h$ - 3 ta o'zaro perpendikulyar bo'lgan L_2 o'qlar va diagonal tekisliklar.

T_d - tetraedrning simmetriya o'qlari va diagonal tekisliklar.

T_h - tetraedrning simmetriya o'qlari va koordinata tekisliklari.

O_h - oktaedrning simmetriya o'qlari va koordinata tekisliklari.

Simmetriya formulalari.




Berilgan sinfga kiruvchi qator simmetriya elementlari mavjud bo'lib, ular ma'lum tartibda yoziladi. Simmetriya elementlarining ma'lum qoida asosida yozilgan to'plami *simmetriya formulasi* deyiladi. Simmetriya formulasida birinchi o'rinda simmetriya o'qlari, o'qlar tartibining pasayib borishi tartibida, ikkinchi o'rinda simmetriya tekisliklari va oxirgi o'rinda simmetriya markazi yoziladi. Masalan: kubning simmetriya formulasi quyidagicha yoziladi:




$$3L_4 4L_3 6L_2 9PC.$$



Kristallografik sinflarning xalqaro va Shenflis belgilari, hamda ularning simmetriya formulalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Kristallografik sinflarning Xalqaro va Shenflis belgilari va singoniyalarni o'rnatish qoidalari.

Singoniya	Xalqaro belgi		Simmetriya formulasi	Shenflis belgisi	Sinfning xarakterli	O'qlarning joylashishi	Kristallografik koordinata o'qlari sistemasi
	Qisqa	to'liq					
	a						

					sim me triy a ele me nti		va kristallar ni o'rnatish qoidasi
1	2	3	4	5	6	7	8
Triklin	1	1	L_1	C_1	1	Kristallar qirralari bo'ylab	$a \neq b \neq c$ $\alpha \neq \beta \neq \gamma \neq 90^\circ$
							
	$\bar{1}$	$\bar{1}$	C	C_i	$\bar{1}$		
Monoklin in	2	2	L_2	C_2	L_2 o'q yo ki m	Y o'qi // L_2 yoki $\perp m$	$a \neq b \neq c$ $\alpha = \gamma = 90^\circ \neq \beta$
	m	m	P	C_{1h}			
	2/m	$\frac{2}{m}$	L_2PC	C_{2h}			
	222	222	$3L_2$	D_2 =V	3 ta	X,Y,Z// L_2 yoki X,Y,Z $\perp$	$a \neq b \neq c$ $\alpha = \beta = \gamma = 90^\circ$
	mm2	2mm	$L_2 2P$	C_{2x}			

Rombik	mm m	mm ²	3L ₂ 3PC	D _{2h} = V _h	L ₂ yo ki 3 ta m	m	
		$\frac{2 \ 2 \ 2}{m \ m \ m}$					
Trigona l	3	3	L ₃	C ₃	L ₃ yo ki L _{3i}	Bosh o'q Z o'qi bo'ylab qolganlar i XY tekisligid a	$a=b=c;$ $\alpha=\beta=90^0$ $\gamma=120^0$
	$\bar{3}$	$\bar{3}$	L ₃ C=L _{3i}	C _{3i}			
	32	32	L ₃ 3L ₂	D ₃			
	3m	3m	L ₃ 3P	C _{3x}			
	$\bar{3}m$	$\bar{3}\frac{2}{m}$	L ₃ 3L ₂ 3PC	D _{3d}			
Geksog onal	6	6	L ₆	C ₆	L ₆ yo ki L _{6i}	Bosh o'q Z o'qi bo'ylab qolganlar i XY tekisligid a	$a=b \neq c$ $\alpha=\beta=\gamma \neq 90^0$ $\gamma=120^0$
	$\bar{6}$	$\bar{6}$	L ₃ P	C _{3h}			
	6/m	$\frac{6}{m}$	L ₆ PC	C _{6h}			
	622	622	L ₆ 6L ₂	D ₆			
	6mm	6mm	L ₆ 6P	C _{6x}			
	$\bar{6}m2$	$\bar{6}m2$	L _{6i} 3L ₂ 3P	D _{3h}			

	$\frac{6}{m}$ mm	$\frac{6}{m} \frac{2}{m} \frac{2}{m}$	$L_6 6L_2 7PC$	D_{6h}			
Tetragonal	4	4	L_4 yoki L_{4i}	$\bar{S}_4$	L_4 yo ki L_{4i}	Bosh o'q Z o'qi bo'ylab Qolganla ri XY tekisligid a	$a=b \neq c$ $\alpha=\beta=\gamma=90^\circ$
	$\bar{4}$	$\bar{4}$	$L_4 PC$	C_{4h}			
	$\frac{4}{m}$	$\frac{4}{m}$	$L_4 4L_2$	D_4			
	422	422	$L_4 4P$	C_{4x}			
	4mm	4mm	$L_4 2L_2 2P$	$D_{2d} = V_d$			
	$\bar{4} 2m$	$\bar{4} 2m$	$L_4 4L_2 5PC$	D_{4h}			
	$\frac{4}{m}$ mm	$\frac{4}{m} \frac{2}{m} \frac{2}{m}$					
Kubik	23	23	$3L_2 4L_3$	T	4 ta L_3	X,Y,Z o'qlar bir- biriga nisbatan $\perp$ joylashg an L_4, L_{4i} yoki L_2 bo'ylab	$a=b=c$ $\alpha=\beta=\gamma=90^\circ$
	m3	$\frac{2}{m} \bar{3}$	$3L_2 4L_3 3PC$	T_h			
	432	432	$3L_4 4L_3 6L_2$	O			
	$\bar{4} 3m$	$\bar{4} 3m$	$3L_4 4L_3 6P$	T_d			
	m3m	$\frac{4}{m} \bar{3} \frac{2}{m}$	$3L_4 4L_3 6L_2 9PC$	O_h			

II-BOB. KRISTALLOGRAFIYA ASOSLARIGA OID MASALALAR

2.1. Kristallografiya asoslariga oid masalalar va ularning yechimlari

1. NaCl kristalining zichligi $2,18 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$ ga teng. Natriyning atom og'irligi 23, xlorniki esa 35,46. Panjara doimiysini aniqlang.

Yechish:

NaCl kristali elementar yacheykasining massasi

$$M = d^3 \rho,$$

bu yerda, ρ — kristall zichligi. Ammo, ikkinchi tomondan

$$M = m_H (N_{Na} A_{Na} + N_{Cl} A_{Cl}).$$

Bu yerda m_H —vodorod atomining massasi; N_{Na} —elementar yacheykadagi natriy atomlari soni; N_{Cl} — elementar yacheykadagi xlor atomlari soni; A_{Na} —natriyning atom og'irligi; A_{Cl} —xlorning atom og'irligi.

Ikkala ifodaning ung tomonlarini tenglashtirib, NaCl ning bitta elementar yacheykasiga yarimta natriy atomi va yarimta xlor atomi to'g'ri kelishini hisobga olgan holda quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$d^3 \rho = \frac{m_H}{2} (A_{Na} + A_{Cl}),$$

$$\text{bundan } d = \sqrt[3]{\frac{m_H}{2\rho} (A_{Na} + A_{Cl})};$$

$$d = \sqrt[3]{\frac{1,66 \cdot 10^{-27} (23 + 35,46)}{2 \cdot 2,18 \cdot 10^3}} = 2,81 \cdot 10^{-10} \text{ m} = 2,81 \text{ \AA}$$

2. Birlik hajmdagi alyuminiy atomlarining sonini toping. Alyuminiy zichligi

$$\rho = 2,7 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3.$$

Yechish:

Bir kilomol alyuminiyda $6,02 \cdot 10^{26}$ ta atom joylashagan. Bir kilogramm molekulaning hajmi

$$V_1 = \frac{A}{\rho},$$

Bu yerda A — atom og'irligi; ρ —zichlik. U holda birlik hajmdagi atomlar soni

$$n = \frac{N}{V_1} = \frac{N}{A} \cdot \rho;$$

$$n = \frac{6,02 \cdot 10^{26} \cdot 2,7 \cdot 10^3}{27} = 6,02 \cdot 10^{28} \text{ m}^{-3}.$$

3. Kub sistemada kristallangan temirning elementar yacheykasidagi atomlar sonini aniqlang. Kubning tomoni $a = 2,27 \text{ \AA}$ temirning atom og'irligi 55,84 va uning zichligi esa 7800 kg/m^3 .

Yechish:

Zichlik formulasini qullab, elementar yacheykadagi atomlar sonini aniqlaymiz

$$N = \frac{\rho a^3}{A_{Fe}};$$

$$N = \frac{7800(2,27)^3 \cdot 10^{-30}}{55,84 \cdot 1,66 \cdot 10^{-27}} \approx 1,99,$$


Demak, bitta elementar yacheykaga 2 ta atom tug'ri kelar ekan.

4. Kristall panjarada beshinchi tartibli simmetriya o'qi mavjud emasligini isbotlang.

Yechish:

Aytaylik kristall panjarada beshinchi tartibli simmetriya o'qi L^5 mavjud bo'lsin (13-rasm). Bu o'qqa eng yaqin bo'lgan panjara tuguni a_1 ni qaraylik. Bu tugunni 72° ga buraganimizda u o'z navbatida ketma-ket a_2 a_3 a_4 va a_5 nuqtalarni egallaydi. Beshburchakning a_1 tugunni a_4 tuguni bilan tutashtirib, a_2 a_3 tomoniga parallel bo'lgan a_1 a_4 tomon hosil qilamiz. Panjaraning parallel atomlar qatorida atomlar orasidagi masofa bir xil bo'lishi kerak. Buning uchun esa a_1 a_4 tomonida panjaraning k tuguni ham joylashishi kerak. Bu tugun esa simmetriya o'qiga barcha a_2 a_3 a_4 va a_5 tugunlardan eng yaqin joylashganidir. Bizning 5- tartibli o'qqa eng yaqin panjara tuguni a_1 deb, qaragan farazimiz noto'g'ri chiqdi. Bundan

ko'rinadiki kristallda 5-tartibli simmetriya o'qi bo'lmas ekan.




13-rasm

5. Qirralari markazlashgan kub panjaraning qo'shni tugunlari ichida doimo teng tomonli uchburchakning uchlari bo'lgan uchta tugundan iborat guruh bo'lishini ko'rsating.

Yechish:

Qirralari markazlashgan kub panjaraning qo'shni tugunlari, teng tomonli uchburchakning uchlari bo'lgan uchta tugundan iborat bo'lgan guruh bo'lishini osongina ko'rsatish mumkin, masalan, 14-rasmdagi A,B,C yoki D,E,F tugunlarni ko'rsatish mumkin. ABC uchburchakning tomonlari bir-biriga tengligi 14-rasmda osongina ko'rinib turibdi, ya'ni $AB=AC=BC$.




14-rasm

6. Teng hajmli sharlarning radiuslari orqali zich joylashish yuzaga kelgandagi quyidagi holatlar uchun elementar yacheykaning hajmlarini aniqlang. 1) hajmi markazlashgan, 2) qirrasi markazlashgan va 3) geksagonal panjara.

Yechish:

1) Elementar yacheykaning parametri shar radiusi orqali quyidagicha ifodalanadi (15-rasm):



15-rasm

$$3a^2 = (4r)^2 \text{ ёку } a = \frac{4r}{\sqrt{3}}.$$

U holda


$$V = a^3 = \frac{64r^3}{3\sqrt{3}}.$$

2) Elementar yacheyka parametrini zich joylashuv hosil qilgan shar radiusi orqali ifodalash mumkin (16-rasm).


$$2a^2 = (4r)^2 \text{ уму } a = 2\sqrt{2}r.$$

U holda,

$$V = a^3 = 8\sqrt{8}r^3 = 16\sqrt{2}r^3.$$



16-rasm



17-rasm

3) Panjara parametrining kattaligi $a = 2r$ bo'lganda, elementar yacheyka asosining yuzasi (17-rasm).

$$S = 6 \cdot \frac{a^2}{4} \cdot \sqrt{3} = 6r^2 \sqrt{3}.$$

$$\frac{c}{a} = 2\sqrt{\frac{2}{3}} \text{ булганлигидан } c = 4r\sqrt{\frac{2}{3}}$$


U holda elementar yacheykaning hajmi

$$V = 6r^2 \sqrt{3} \cdot 4r \sqrt{\frac{2}{3}} = 24\sqrt{2}r^3.$$


7. 1) oddiy, 2) hajmi markazlashgan va 3) qirradi markazlashgan kub panjaralar hollarida elementar yacheykadagi atomlar soni nechaga teng.

Yechish:


1) Sodda kubik panjarada atomlar faqat yacheyka burchagining qirralarida joylashadi. Bitta qirrasiga elementar yacheykaning sakkizta parallelopipedi to'g'ri keladi. Shu sababli yacheykaning bitta qismiga atomning sakkizdan bir qism to'g'ri keladi (18-rasm). Yacheyka sakkizta burchakka ega bo'lib, o'z navbatida bitta atom to'g'ri keladi.




18-rasm



19-rasm



20-rasm



21-rasm

2) Hajmi markazlashgan kubik panjaraga yacheyka burchaklarida joylashgan atomlardan tashkari yacheyka markazida joylashgan bitta atom to'g'ri keladi (19-rasm). Shunday qilib, hajmi markazlashgan elementar yacheykaga ikkita atom


to'g'ri keladi.

3) Tomonlari markazlashgan kubik panjarada atomlar ikkita yacheykaga qarashli bo'lgan atom joylashgan bo'ladi (20-rasm). Shu sababli tomonlari markazlashgan kubik elementar yacheykaga to'rtta atom to'g'ri keladi.


8. Geksagonal zich joylashgan panjaraning elementar yacheykasidagi atomlar soni nechaga teng.

Yechish:

Geksogonal zich joylashgan elementar yacheykaga oltita atom to'g'ri keladi. Uchta trigonal prizma markazida joylashgan uchta ichki atom (21-rasm) to'liq elementar yacheykada yotadi. Tomon asosi markazida joylashgan ikkita atomlarning yarimi bitta atomga to'g'ri keladi. Geksogonal prizma qirrasida joylashgan har bitta atom oltita elementar yacheykaga to'g'ri keladi (22-rasm). Bu o'n ikkita atomlarning hissi bitta elementar yacheykada ikkita atomga to'g'ri keladi.



22-rasm.



23-rasm.

Shunday qilib geksogonal panjara elementar yacheykasiga oltita atom to'g'ri keladi.

9. Zich joylanganli ideal geksagonal struktura uchun $\frac{c}{a}$, $\left(\frac{8}{3}\right)^{1/2} = 1,633$ ga

tengligini ko'rsating.

Yechish:

Geksagonal zich joylashgan panjara atomlari AVA sxema bo'yicha joylashib qatlam hosil qiladi . Bu panjarada uchta atom birinchi qatlamda va bitta atom ikkinchi qatlamda joylashib, $s/2$ balandlikka ega bo'lgan to'rt tomonli piramida hosil bo'ladi (23-rasm). Bunda

$$\frac{c}{2} = \sqrt{a^2 - \left(\frac{a\sqrt{3}}{3}\right)^2} = a\sqrt{\frac{2}{3}},$$

panjara davri $a=2g$, bo'lsa

$$c = 4r\sqrt{\frac{2}{3}}.$$

U holda

$$\frac{c}{a} = \frac{4r\sqrt{\frac{2}{3}}}{2r} = 2\sqrt{\frac{2}{3}} = 1.633.$$

10. Radiusi r bo'lgan qattiq sferadan iborat bir xil atomlardan oddiy kub panjara tuzilgan bo'lsin. Elementar yacheykaning yoni $a = 22$ (atomlar bir-biriga tegib turibdi). Bunday joylashishda, hajmni atomlar egallagan qismi $\frac{\pi}{6} = 0,523$ ga teng ekanligini ko'rsating.

Yechish:

Oddiy kub panjara elementar yacheykasining hajmi $V=a^3=8r^3$. Bunday yacheykaga bitta atom to'g'ri keladi va uning hajmi

$$V_1 = \frac{4}{3}\pi r^3$$

To'ldirish koeffitsiyenti elementar yacheykada joylashgan barcha atomlar hajmining elementar yacheyka hajmiga nisbati bilan xarakterlanadi.

$$k = \frac{NV_1}{V},$$

Bu yerda N - yacheykadagi atomlar soni, V_1 – atomning hajmi, V -elementar yacheyka hajmi. U holda oddiy kristall panjarani atomlar bilan to'ldirish koeffitsiyenti

$$k = \frac{V_1}{V} = \frac{\frac{4}{3}\pi r^3}{8r^3} = \frac{\pi}{6} = 0,523.$$

11. Hajmi markazlashgan kub panjara, radiusi r bo'lgan bir xil atomlardan tashkil topgan. Kub markazidan o'tuvchi diagonal bo'yicha joylashgan atomlar bir-biriga tegib turgan bo'lsin. Bunday joylashishda hajmni atomlar egallagan qismi $\frac{\pi\sqrt{3}}{8} = 0,68$ ga tengligini ko'rsating.

Yechish:

Hajmi markazlashgan panjara (N = 2) elementar yacheykasining hajmi $\left(\frac{4}{\sqrt{3}}r\right)^3$

Bo'lsa, u holda

$$k = \frac{2 \cdot \frac{4}{3}\pi r^3}{\left(\frac{4}{\sqrt{3}}r\right)^3} = \frac{\pi\sqrt{3}}{8} = 0.68.$$

12. Qirralari markazlashgan va geksagonal panjaralar, radiusi r bo'lgan qattiq sferalardan iborat bo'lgan bir xil atomlardan tuzilgan bo'lsin. Bunday o'rnashishda hajmni atomlar egallagan qismi $\frac{\pi\sqrt{2}}{6} = 0,74$ ga tengligini ko'rsating.

Yechish:

Qirralari markazlashgan kub panjara (N=4) elementar yacheykasining hajmi yacheyka $16\sqrt{2}r^3$

U holda

$$k = \frac{4 \cdot \frac{4}{3}\pi r^3}{16\sqrt{2}r^3} = \frac{\pi}{3\sqrt{2}} = 0,74.$$

Geksagonal panjara elementar yacheykasida 6 ta atom joylashgan, shu sababli to'ldirish koeffitsiyenti quyidagi ifoda orqali ifodalanadi


$$k = \frac{6 \cdot \frac{4}{3}\pi r^3}{24\sqrt{2}r^3} = \frac{\pi}{3\sqrt{2}} = 0,74.$$

Shunday qilib, geksagonal panjarada ham qirralari markazlashgan kub


elementar yacheyka kabi panjara umumiy hajmining 74% ni atomlar bilan to'ldirar ekan

Yuqorida keltirilgan hisoblarga ko'ra eng atomlari zich joylashgan panjarada pajara umumiy hajmining 26% to'lmasdan qolar ekan

13. Teng hajmli sharlar zich o'rnashgan holdagi oktaedr (A) va tetraedr (B) bo'shliqlarda joylasha oladigan atomlarning radiusini aniqlang.



A)



B)

Yechish:

Oktaedr bo'shliqda joylashgan atom asosiy panjaraning oltita atomi bilan o'rab olingan. Oktaedr ko'ndalang kesimidan to'rtta atom markazidan va bo'shlig'ida joylashgan atom orqali tekislik o'tkazamiz.

(24-rasm). Rasmdan ko'rinib turibdiki,

$$4R^2 + 4R^2 = (2R + 2r)^2,$$

Bu yerda R - asosiy panjara atomining radiusi; r - oktaedrik bo'shliqda joylashgan atomning radiusi. Hosil bo'lgan tenglamani r ga nisbatan yechib quyidagini hosil qilamiz

$$r = R(\sqrt{2} - 1) \approx 0.41R,$$

ya'ni oktaedrik bo'shliqqa joylashtirish mumkin bo'lgan atomning radiusi 0,41 panjara atomi radiusiga teng bo'ladi.

Tetroedrik bo'shliqqa joylashgan atom bu bo'shliqni o'rab turgan barcha asosiy atomlarga tegib turishi kerak. Bu atomning markazi barcha qo'shni atomlar

markazidan bir xil uzoqlikda bo'lishi kerak, ya'ni tetraedrik bo'shliq markazi bo'shliqni o'rab turgan asosiy sharlar markazidan o'tuvchi to'g'ri chiziqlarni birlashtiruvchi tetraedr markazi hisoblanadi. Tegib turish sharti quyidagicha bo'ladi.

$$R : r = d$$

Bu yerda R – katta sharning radiusi; r - tetraedrik bo'shliqda joylashagan uncha katta bo'lmagan sharning radiusi; d -tetraedr markazidan uning uchigacha bo'lgan masofa. Shunday qilib,

$$OA = \frac{2\sqrt{3}}{3}R \text{ va}$$

$$OB = \sqrt{4R^2 \frac{4}{9} \cdot 3R^2} = 2R\sqrt{\frac{2}{3}}$$

(25-rasm), u holda bu yerdan:

$$(OB - d)^2 + OA^2 = d^2$$


yoki

$$\left[2R\sqrt{\frac{2}{3}} - (R + r) \right]^2 + \frac{4}{3}R^2 = (R + r)^2$$


Bu tenglamani k ga nisbatan yechib

$$r = \frac{4R^2 \left(1 - \sqrt{\frac{2}{3}} \right)}{4R\sqrt{\frac{2}{3}}} = R \left(\sqrt{\frac{2}{3}} - 1 \right) = 0,22R$$

ni hosil qilamiz.



24-rasm.



25-rasm.

14. a va b atomlar r_a hamda r_b radiusli qattiq sferalardan iborat va CaCl strukturaga ega bo'lgan kristallni tashkil qilgan bo'lsin. Agar $\frac{r_a}{r_b}$ yoki $\frac{r_b}{r_a}$, 1,37 dan katta bo'lsa, kubning markazidan o'tuvchi diagonal bo'yicha joylashgan atomlar bir-biriga tega olmasligini ko'rsating.

Yechish

Struktura tipe Cs Cl turdagi strukturalarning koordinatsion soni 8 ga teng Bunday struktura turg'unligining quyi chegarasi quyidagi tenglamadan aniqlanadi.

$$2r_a + 2r_b = 2r_b\sqrt{3}$$

(26-rasm), bu yerda $\frac{r_a}{r_b} = 0,73$.

